

Ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi yo'lida



Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limida joriy yilning 4 sentyabrь kuni bo'lim raisi A.Mirzaev, uning o'rinosbosari X.Xamidov va ilmiy kotib K.Nurboev hamda NKMKnинг innovatsion rivojlanish bo'yicha bosh muhandis o'rinosbosari K.Dadabaev, yangi texnologiyalarni tadbiq etish Innovatsion markazi boshlig'i U.Sharafutdinov va grupperahbari G'.Musaevlar ishtirokida davra suhbati bo'lib o'tdi. Suhbatda 2019 yil 1 iyunda bo'lib o'tgan NKMKnинг Ilmiy-texnik kengash bayoni vazifalarini muhokama qilindi.

Shuni eslatib o'tamiz-ki, joriy yilning 13-14 may kunlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limining Idoralararo ilmiy-texnik kengashning oltinchi Kengaytirilgan ishchi yig'ilishi bo'lib o'tgandi. Ushbu anjumanda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 11ta Ilmiy tadqiqot institutlari va respublikamizdagi Oliy ta'lim muassasalari hamda Ilmiy markazlardan qirqdan ortiq yetakchi ilmiy xodim va doktorantlar ishtirok etishib, NKMKn ning Markaziy va Shimoliy kon boshqarmalarining ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rishga muvaffaq bo'lishgandi. Ilmiy tadqiqot institutlarining yetuk olimlari hamda ishchi xodimlari Navoiy viloyati ishlab chiqarish korxonalari, xususan, NKMKn ning ishlab chiqarish bilan bog'liq muammolari yechimiga yo'naltirilgan 50 dan ortiq ilmiy takliflari muhokama qilindi.

Uchrashuvda ushbu ilmiy tadqiqot takliflarining 22tasi NKMKn ning ITKsida ko'llab-quvvatlandi haqida alohida ta'kidlab o'tildi. Ammo, ulardan ba'zi mavzular bo'yicha hozirgi kungacha ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra xo'jalik shartnomalari tuzilishida qiyinchiliklarga uchrashining sabablari ham aytib o'tildi. Muhokama jarayonida ushbu muammolarning tezroq yechimini topilishi, ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi yo'lida qo'yilan yana bir qadam bo'lishi hamda mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti va xalqning farovonligini oshirishda muhim o'rinnutishi asosiy mavzu bo'ldi.

Joriy yilning 5 sentyabrь kuni taklif etilgan mavzular bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti "Fizika-Quyosh" IChB olimlari M.Payzullaxonov, Sh.Nurmatov, E.Nodirmatov, O.Rajamatovlar Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limiga tashriflari chog'ida o'zlarining yangi ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini taqdimotini o'tkazdilar. Ushbu "davra suhbati"da NKMKn dan yuqorida ko'rsatligan vakillaridan tashqari A.Saidov, I.Ortiqov, T.Xudoyberdiev, N.Artikov va Sh.Avezovlar ham ishtirok etishdi.

Poytaxtdan kelgan mehmonlar o'zlari bilan maxsus mahsulotni va "Tenziometr" nomli namlikni o'lchovchi vositani amalda qullah yo'llarin namoyish qildilar. NKMK mutaxassislari ushbu ishlanmalarga baho berar ekan, ulrni hali takomiliga yetkazish va har xil sharoit va vaziyatlarda ularni tadqiq qilish lozimligini ta'kidladilar. Tomonlar keljakda yaqin hamkorlikni yo'lga quyish orqali ushbu muammolarni yechish va so'ngra xo'jalik shartnomalarini tuzishga kelishib oldilar.

Uchrashuvdan so'ng konstruktiv muloqotni yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ilmiy tadqiqot institutlari va respublikamizdagi Oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlarga tegishla xatlar jo'natildi.

Fevzi ISTABLAEV,

FA Navoiy bo'limi matbuot kotibi.